



FARG'ONA-TOSHKENT MAQOM YO'LLARIGA KIRUVCHI SEGOH MAQOMI XUSUSIDA

Muallif: Abdurahmanova Gulnoza Abdulhakim qizi ¹

Affilyatsiya: Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti, Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrası talabasi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14377407>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga kiruvchi Segoh maqomi haqida gap boradi. Segoh maqomining adabiy hamda musiqiy tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: maqom asar, milliy, kuy.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlarimiz o'rtasida milliy kuylarimizni keng targ'ib qilish bu bilan esa tariximizni yana qayta gavdalantirishimiz, jonlatirishimiz mumkin. Faqatgina bu bilan cheklanibgina qolmay, yoshlarimiz o'rtasidagi submadaniyatni kamayishini, yoshlarimizning odobli-axloqli bo'lib voyaga yetishiga o'z hissasini qo'shadi. Bundan tashqari milliy maqomlar odamlarning turli psixologik holatdan chiqarishga, yangi bir ishlarini boshlayotganida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi, mativatsiya beradi. Lekin bu kuylar bunday kuchga ega ekanligini hozirgi vaqtda juda ham ozchilik bilib, tushunib yetishmoqda. Sabab esa durdona asarlarimizni qanchalik kam tinglasak, odamlar orasida bugungi yoshlarimiz orsida tarqalishi kamayadi. Natijada hozir o'sib ulg'ayib kelayotgan yoshlar bunday kuylarimiz borligini ham bilishmaydilar. Xalq musiqasi og'zaki ijodiyoti, an'analari, urf-odatları asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga sharqona g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi. Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi”.

“Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” deya bejizga takidlamagan yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev. Biz o'z an'alarimizni targ'ib qilib o'z tariximizni yana qayta jonlatirib tiriltira olamiz. Har bir inson o'z tarixini milliyligini har qanday holatda ham unutmashligi kerak, har qanday rivojlanayotgan zamonda ham an'analarni o'zlikni yo'qotmalik kerak balki aksincha, bugungi yoshlarmiz kelajak avlod va tarixiy manbaalarimiz o'rtasidagi ko'prikdir. Bu ko'priknı mustahkam bo'lishi va uzoq yillargacha xizmat qilishi uchun biz bugundan balki hozirdan harakat qilishimiz kerak. Har bir milliy maqom kuylarimiz sabrli, toqatli va shukur qiluvchi insonlarni tarbiyalaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Toshkent va Farg'ona vodiysi shaharlari (Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Quva, Xo'jand, Farg'ona, O'sh) musiqiy amaliyotida joriy etilgan maqom yo'llariga nisbatan «Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari» (yoki «Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari») umumlashtirilgan iborasi qo'llaniladi. Bu turdagi maqomlar Buxoro va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq, yaxlit bir turkumni tashkil etmay, balki alohida-alohida bo'lgan cholg'u va ashula yo'llaridan iboratdir. Xususan, «Nasrullo I-V», «Munojot I-IV», «Ajam Taronalari», «Miskin I-V», «Segoh I-III», «Mushkiloti Segoh», «Sayqal I-II», «Mirzadavlat I-II», «Mushkiloti Dugoh», «Cho'li Iroq» kabi cholg'u kuylari hamda «Chorgoh I-V», «Dugoh-Husayn I-VII», «Bayot I-V», «Bayoti Sheroziy I-V», «Gulyor-Shahnoz I-V», «Ko'cha Bog'i I-II», «Segoh», «Toshkent Irog'i», «Munojot» singari ashula yo'llari shular jumlasidandir.

O'tmishda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli sharoit va vaziyat (xalq tomosha va sayillari, dorbozlar o'yini, to'y bazmlari va h.k.)larda ham mudom ijro etib kelingan. Bu hol ularning xalq orasida mashhur bo'lishi sabablaridan biri hamdir. Ayni paytda bu maqomlarning Shashmaqom tizimidan farqli o'laroq «tarqoq tizim» shaklida bo'lishi sababini mutaxassislar aksariyat holda «shahar madaniyati» omili bilan izohlaydilar. Jumladan, professor V.M.Belyayev Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining yaxlit bir butun tizimga ega emasligini ularning asosan «shahar savdogarlari va hunarmandlari muhitida yashab kelganligi bilan sharhlaydi. Nazarimizda, iqtibos etilgan ushbu fikrlarga yana bir sabab omilni qo'shish kerak. U ham bo'lsa musiqa ilmining Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari shakllanishida yetarlicha faol ishtirok etmaganligidir. Chunki, bu davrga kelib musiqa ilmi avvalgi asrlarda erishgan o'zining yuqori darajalaridan anchagina chekingan edi. Lekin, bu kabi holatlar mazkur maqomlarning badiiy qiymatini kamsitishga asos bo'lolmaydi aslo, zero qanday shaklda namoyon bo'lishidan qat'iy nazar bu namunalarda o'zbek mumtoz kuy va ashulachilik san'atining betakror yuksak va benazir sifatlari mujassamdir. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga kiruvchi Segoh asarini adabiy tahlil qilib chiqamiz. Undan oldin g'azalni matnini keltirib o'tamiz:

Hijron tuni jafosila jon bo'ldi beqaror,
Bo'ldi sirin butun jahon axliga oshkor.
El etdi tanalar bilan ozorim ixtiyor,
Sen ham jafolaring bila etma menni xokisor.
Ey ko'nglimni qilguvchi alam bila zor-zor,
Bitdi firoqi jabrini tortmoqqa toqatim.
Rashkila mavj bo'ldi qaroru halovatim,
Nundek egildi g'am yuki ostida qomatim.
Fikrim senni visolingu yo'q o'zga hojatim,
Ammo sen o'zga bazmi bilan mastu baxtiyor.

Birinchi xat, hijron chekkan tunlarimda jonim beqanoat bo'ldi sirim butun jahon ahliga ochiq-oydin bo'ldi, ikkinchi xat, el meni qildi xatolarim bilan azob ravo ko'rdi. Sen ham qiynoqlaring bilan qilma meni itoat qilguvchi uchinchisi xat, ey ko'nglimni alamlaring bilan zor-zor tugadi azob jabrlarni tortmoqqa sabru toqatim.

Kuy tahlili esa an'anaviy ashula shakliga mos daromad, miyonxat, dunasr va firovard kabi boshqichlarni ko'rsatsatadi. Asarni ijro uslubi juda sokin, dardli yangraydi. Bu esa maqom falsafasi va talqinining yaqqol namunasidir. Xulosa o'rnida shuni aytish

mumkin-ki, besh tashabbus tarkibida musiqa san'ati mavjud. Biz esa ushbu tashabbus maqsadidan unumli foydalanib, faqatgina tashqarida kirib kelgan ohanglarni, madaniyatni o'rganib qolmay, milliy maqomimizni o'rganib, targ'ib qilishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ibrohimov O.A. Maqom asoslari – Toshkent: O'quv qo'llanma. "Turon-Iqbol". 2018, 152-b

Maksumova F.Q. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida – maqom san'ati fanini o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 2023-y

<https://scholar.google.com/citations>

www.uzmmsi.uz

www.O'zDKkonservatoriya.uz

